

**BOSHLANG'ICH SINF BOSQICHIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI SAMARALI
TASHKIL ETISH**

Bo'riboyeva Gavhar Primqulova
Sardoba tumani 11-maktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar kesimida o'quvchilarni sinfdan tashqari ishlarga jalg qilish va bu jarayonni samarali yo'llar bilan olib borish metodikasi haqida so'z boradi. Shu bilan birga, sinfdan tashqari ishlarni noan'anaviy usullarda olib borish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *to'garak, sinfdan tashqari ishlar, samarali yo'llar, metodika, noan'anaviy, tadbir, kecha, reja.*

Abstract: This article talks about the methodology of engaging students in extracurricular activities in the elementary grades and conducting this process in effective ways. At the same time, there are recommendations for conducting extracurricular activities in non-traditional ways.

Key words: *circle, extracurricular activities, effective ways, methodology, non-traditional, event, party, plan.*

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda ta'lif jarayoni boshqa sohalar kabi ildam qadamlar bilan rivojlanib bormoqda. Shu jumladan O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi sohasida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Barcha islohat va talabning eng asosiy maqsadi ta'lifning sifatini oshirishga qaratilgan. O'quvchini nafaqat dars paytidagi vaqtini, balki darsdan so'ngi faoliyatini ham mazmunli tashkil etish maqsad qilib olingan. O'quvchilarni darsdan bo'sh paytlarini mazmunli o'tkazish maqsadida ularni avvalo mustaqil fikrlashga to'gri yo'naltirish lozim. Buning uchun avvalo har bir o'quvchining individual xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil fikrlashga bo'lgan qiziqishlarini aniqlab, mavjud kamchiliklar ustida ish olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini to'g'ri amalga oshirishni to'garaklar orqali amalga oshirish mumkin. Buning uchun avvalo ishni sinfdan tashqari o'qish uchun berilgan asarlar ro'yxati bilan tanishib chiqishdan boshlash lozim. Bu ro'yxatdagi asarlarni ikki guruhg'a ajratish mumkin:

- 1.Yozuvchilarining dasturga (darslikga) kirmagan asarlari.
- 2.Yozuvchilarining dasturga (darslikga) kirgan asarlari.

Sinfda o'tiladigan asarlarga aloqasi bo'lmasa ham, o'quvchilarining bilim saviyalarini oshirishga xizmat qiladigan asarlar tanlab olinishi kerak. Har bir o'quv yili boshida sinfdan tashqari o'qish uchun taqdim qilinadigan asarlar ro'yxati tuzib chiqilgandan keyin, bu kitoblarni qayerdan olish kerakligi haqida maslahat beriladi.

Shu maqsadda maktab kutubxonasi dagi asarlar katalog bo'yicha ko'rib chiqiladi. Agar bu asarlar maktab kutubxonasi bo'lmasa, tuman, shahar kutubxonalaridan olish topshiriladi. Har bir asarni qancha muddatda o'qib chiqilishi ko'rsatiladi. Asarlarning qaysi birini avval, qaysilarini keyin o'qish tushuntiriladi. O'quvchilar bunday asarlarni o'qib chiqqanlaridan keyin o'qish yo'llari aytib o'tiladi. O'quvchilar bunday asarlarni o'qib chiqqanlaridan keyin o'qituvchi suhbat uyuştiradi, munozara o'tkazadi, o'quvchilarga so'zlatadi, uni o'qituvchi o'zi xulosalab, yakunlaydi.

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlik qilishning yana bir turi Konferensiya shaklidir. Konferensiya ham oldindan ko'rilgan tayyorgarlik asosida, o'quvchi-faollar yoki to'garak ishtirokchilari tomonidan o'tkaziladi. Bunday kechada bir yoki ikkita ma'ruza, uning asarlari hususida so'zlanishi, she'rlaridan ifodali o'qilishi lozim. Konferensiyanı tayyorlash va o'tkazishda adabiyot o'qituvchilari, kutubxona mudiri, direktor o'rinnbosari ishtirok etadi. Agar vistavka o'tkazish joiz bo'lsa, ma'lum bir yozuvchining tug'ilish sanasiga atab tayyorlash, tayyorgarlikni bir necha hafta oldindan boshlash yaxshi natija beradi.

Bundan tashqari imkon qadar yozuvchi yoki shoir bilan (u hayot bo'lsa) uchrashuvlar o'tkazish o'quvchilarni juda mamnun etadi. Chunki, qishloq o'quvchilari yozuvchi suratinigina ko'rib ulg'aygan bo'lib, uning o'zini ko'rishi, so'zini eshitishi unda katta taassurot qoldiradi. Shuningdek, yozuvchining qadamjoylarini ziyorat qilish ham mакtabdan tashqari ish turiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, sinfdan tashqari ishlар to'g'ri metod orqali rejalashtirilsa, samarali vositalardan foydalanilsa bolaning fikrashi va dunyoqarashiga ijobiylashtirilsa, o'sebi o'qituvchi o'qishga rahbarlik qilishning yana bir turi Konferensiya shaklidir. Konferensiya ham oldindan ko'rilgan tayyorgarlik asosida, o'quvchi-faollar yoki to'garak ishtirokchilari tomonidan o'tkaziladi. Bunday kechada bir yoki ikkita ma'ruza, uning asarlari hususida so'zlanishi, she'rlaridan ifodali o'qilishi lozim. Konferensiyanı tayyorlash va o'tkazishda adabiyot o'qituvchilari, kutubxona mudiri, direktor o'rinnbosari ishtirok etadi. Agar vistavka o'tkazish joiz bo'lsa, ma'lum bir yozuvchining tug'ilish sanasiga atab tayyorlash, tayyorgarlikni bir necha hafta oldindan boshlash yaxshi natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Jo'rayev A. " Tarbiyaviy darslar o'tish" T. O'qituvchi. 2020.
- 2.Samariddin B. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy tamoyillari. International Conferens. 2021.
- 2.Ummatkulova, S. S., & Xo'Jaboyeva, Z. S. Q. (2022). MATEMATIKA DARSALARIDA BOSHLANG'ICH SINF O 'QUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASHLARINI SHAKLLANTIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(3), 1406-1419.